

## BUXORO VOHASI TO‘Y MAROSIMLARI, URF-ODATLARI VA QO‘SHIQLARINING BADIY TALQINI

**Abdivaliyeva Ruxsora Vasliddin qizi**

*Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Tursunova Nasiba**

*Ilmiy rahbar: dotsent*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Buxoro vohasida o‘tkaziladigan to‘y marosim qo‘shiqlarining folkloriy, etnografik va badiiy xususiyatlari keng yoritiladi. Xalq qo‘shiqlarining to‘y marosimlari jarayonidagi o‘rni, urf-odat va an‘analar bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi hamda ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *folklor, to‘y, marosim, qo‘shiq, yor-yor, o‘lan, lapar, urf-odatlar, an‘analar.*

Xalq og‘zaki ijodi millatning ko‘p asrlik tarixiy xotirasi, ma‘naviy olami va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan bebaho merosdir. Ushbu meros tarkibida marosim qo‘shiqlari alohida o‘rin egallaydi. Marosim qo‘shiqlari inson hayotidagi muhim bosqichlar — tug‘ilish, voyaga yetish, nikoh va oila qurish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan.

Marosim qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri bo‘lib, ular muayyan marosim yoki udum jarayonida ijro etilishi bilan xarakterlanadi. Xalq qo‘shiqlari kishilarning ehtiyoqlari, orzu-umidlari va hayotiy tajribasini ifodalaydi.

Ayniqsa, to‘y marosimlari bilan bog‘liq qo‘shiqlar xalqning oilaga, nikohga va qarindoshlik munosabatlariga bo‘lgan qarashlarini yaqqol aks ettiradi. Ushbu qo‘shiqlar nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydi.

Buxoro vohasi o‘zining qadimiy tarixi, boy madaniyati va rang-barang folklor an‘analari bilan ajralib turadi. Ushbu hududda to‘y marosimlari asrlar davomida shakllanib, o‘ziga xos udum va qo‘shiqlar bilan boyib borgan. Shu bois Buxoro to‘y marosim qo‘shiqlarini o‘rganish folklorshunoslik va etnografiya fanlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

[Folklorshunos olimlar marosim qo‘shiqlarini xalqning ibtidoiy dunyoqarashi bilan bog‘liq holda talqin qiladilar. Ularning fikricha, “marosim qo‘shiqlari dastlab sehrli kuchga ega deb hisoblangan va turli marosimlar orqali hayotiy muvozanatni saqlashga xizmat qilgan”<sup>11</sup>]. Marosim qo‘shiqlari xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini va tarixini avloddan-avlodga yetkazadi. Masalan, “kelin salom” qo‘shiqlari o‘tmishdagi to‘y marosimlari tartibini saqlab qolgan hamda marosimning asosiy verbal qismini tashkil

<sup>11</sup> M. Jo‘rayev. O‘zbek xalq taqvimini va marosim folklori. "Fan" nashriyoti. Toshkent 2002. 24-26betlar.



etadi. Ular ogʻzaki ijro orqali yozma manbalarga ehtiyoj sezilmasdan folklor namunasi sifatida yashaydi.

Buxoro vohasida toʻy marosimlari muayyan ketma-ketlik asosida oʻtkaziladi. “Sovchilik”, “unashtirish”, “nikoh”, “kelin tushirish” va toʻydan keyin “kelin salom”, “joy yigʻdi”, “chorlov” kabi marosimlari toʻyning asosiy bosqichlari hisoblanadi.

Sovchilik marosimida ikki oila oʻrtasida kelishuvga erishiladi. [Sovchilik toʻgʻrisidagi ilk maʼlumotlar VII-VIII asrlarga oid Urxun Yenisey bitiklarida uchraydi. Toʻnyuquq bitiktoshida "sov", "sab" kalimasi soʻz, ran maʼnosida ishlatiladi<sup>12</sup>.] Odatda, sovchilikka yigitning onasi, ammalari yoki xolalari bilan boriladi va qizning uyiga tashrif buyurib "mehmonga keldik" yoki "ostonangizni supurgani keldik" kabi iboralarni aytishadi. Qizning onasi bilan suhbatlashib, xalqimizning boy tajribasi asosida yuzaga kelgan "onasini koʻr-u qizini ol" maqoliga amal qiladilar. Shuningdek, kelgan sovchilar koʻp holatlarda uyning tozaligiga, saranjomligiga qarab qizga baho beradilar. Sovchilarni maʼjuziy maʼnoda “elchilar” deb atashadi. Qizning ota-onasi rozilik bildirgach, sovchilar shu rozilikka oldindan maxsus tayyorgarlik tarzida dasturxon (patir, shirinlik, meva, baʼzan qizga, uning ota-onasiga capno) olib boradilar. Sovchilar huzurida qiz va yigit bir-birlariga unashtirilganligi eʼlon qilinadi va bu qarorning muqaddasligini taʼkidlash maʼnosida sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, juft non sindiriladi, (non sindirish) soʻng "oq oʻrar" marosimi oʻtkaziladi. Odatda, bu marosimda eng yaqin, Yoshi ulugʻ, tabarruk qarindoshlar ishtirok etishib, ikki tomonning quda boʻlishiga rozilik belgisi sifatida oqlik (oq kashta tikilgan roʻmolcha) beriladi.

Unashtirish jarayonida esa qarindoshlik rishtalari mustahkamlanib, kelajakdagi toʻyga tayyorgarlik koʻriladi. Buxoro hududida unashtirish (yoki “qaynoq” jarayoni) qadimdan saqlanib kelgan ijtimoiy va madaniy urf-odat hisoblanadi. Unashtirish — kelin va kuyov oilalari oʻrtasida rasmiy kelishuvni bildiruvchi marosimdir va u koʻplab anʼanaviy qoidalar bilan amalga oshiriladi. Bu marosimning maqsadi oilalarni birlashtirish va kelin-kuyov oʻrtasidagi munosabatlarni rasmiylashtirishdir. Yoshlarni oilaga tayyorlash va jamiyatda ijtimoiy tartibni saqlashdan iborat.

Jarayonning asosiy bosqichi – bu suhbat va kelishuvdir, yaʼni kuyov oilasi kelinning oilasiga kelib, kelin va uning oilasi bilan suhbatlashadi. Asosiy masala — toʻy sanasi, kelin badali, sovgʻalar va marosim tafsilotlarini kelishish. Bu bosqichda oilalar oʻrtasida hurmat va samimiy munosabat muhim hisoblanadi. Keyingi bosqich esa sovgʻa yuborish. Bunda kuyov oilasi kelin oilasiga sovgʻa yuboradi, odatda shirinlik, meva, kiyim-kechak va zargarlik buyumlari boʻladi. Sovgʻalar kelin oilasiga hurmat bilan qabul qilinadi. Unashtirish orqali qadimiy urf-odatlar va xalq arasm-rusmlari saqlanadi.

Nikoh marosimi diniy va maʼnaviy ahamiyatga kasb etishi bilan, xalq duolari bilan oʻtkaziladi. Nikoh marosimi koʻpincha kelinning uyi yoki mahalliy jamoa markazida oʻtkaziladi. Uy ichida maxsus bezaklar, rangli matolar, gilamlar ishlatiladi.

<sup>12</sup> A. Ashirov. Oʻzbek xalq etnologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent 2014. 140-155-betlar.





Yana bir Buxoro to‘y marosimlaridan biri – bu bichuv marosimi. Bu marosimda kuyov tomon kelining uyiga kelin uchun oq mato keltiradi. Ikki tomondan yangalar bu matoni kelin uchun oq matoli ko‘ylak bichishadi. Oralaridan yoshi ulug‘, bir nikohli oilali ayollardan biri bichilgan matoni, tikish uchun oladi.

Qadimda esa bu marosimda kelin va kuyov uchun ko‘ylak tikishgan, ammo hozirda faqat kelin uchun tikiladi. Bu marosimni "ikki yoshning baxtli bo‘lishi va mana shu oq mato kabi pok muhabbat bilan yashashi uchun to‘ydan oldin qudalar birgalikda nishonlashadi.

Chimildiq marosimi – bu to‘y kuni yoki to‘ydan oldin kelinning xonadonida nishonlanadi. Bu marosimdagi chimildiqni xalqimiz juda muqaddas deb hisoblashadi. Chunki ikki yoshning hayoti shu dargohdan boshlanadi deb qarashadi. Bu marosimning ham o‘ziga xos udumlari va iriml-sirmlar mavjud. Masalan marosimning boshlanishi kelinning otasi rozilik berib, tizzasiga bosh urdirib, duo qilganidan so‘ng boshlanadi.

a) Kuyov tomon kelinnig uyiga borgandan so‘ng, ikki tomondan juft ayollar tomonidan novvot bilan chimildiq qoqiladi;

b) Oyoq bosish marosimi – bunda kuyov kelinning oyog‘ini bosadi, ya'ni erkak hukmi shu oilaning ustuni ekanligini hurmati bilan olqishlaydilar;

s) Kelinning ota-onasi va yaqinlari tomonidan “o‘tiring kuyov” aytimlari aytiladi,

d) Chimildiqda kelin-kuyovning bir-biriga asal yalatishi, ya'ni ikki yoshning hayoti shirin bo‘lishi uchun qilinadi. Farzandlari ko‘p bo‘lishi uchun kuyovning choponiga tuxum solib “qu-qulash”, hayotlari oynadek yorug‘ bo‘lishi uchun, “oynaga qaratish” kabi adatlar barariladi.

e) Shuningdek, yaqin qarindoshlar tomonidan ezgu tilaklar aytiladi va mehmonlarga hadiyalar tarqatiladi.

Buxoro to‘y marosim qo‘shiqlari va ularning badiiy xususiyatlari

Yor-yor qo‘shiqlari Buxoro to‘y marosimlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu qo‘shiqlarda kelinning ota uyidan ajralishi, yangi hayotga qadam qo‘yishi bilan bog‘liq his-tuyg‘ular ifodalanadi. Sog‘inch va hayotiy pand-nasihatlar mujassam bo‘ladi.

Yor-yor qo‘shig‘i:

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan

O‘lanchi qiz yor-yor-a, o‘lanchi qiz.

Va’ dasida turmagano, yolg‘onchi qiz,

Yor-yor ey yolg‘onchi qiz.

Kelin salom qo‘shiqlari esa kelinning yangi xonadonga hurmat bajo keltirishini, kamtarlik va itoatkorlik fazilatlarini ifodalaydi. Bu marosimda kuyov oilasi va uning qarindoshlari yig‘ilishadi. Kelinni qaynonasi olib chiqadi va kelin salom marosimi boshlanadi. Kelin sovg‘alari dasturxonchi tomonidan tarqatiladi. Qaynonasi esa kelinga shirinlik beradi yoki asal yalatadi, bo‘yniga moy surtib, qo‘liga surpa beradi barmoqlarini unga botiradi. Ushbu irim-sirimlar odatga aylangan, ezgulikka yo‘g‘rilanligi bilan ham ahamiyatlidir. Kelin salom:





Erka ulni er qilgan, ikki yoshni bir qilgan.

Salom salom kelin salom avval Allohga salom.

Tong saharlab tur degan, tahoratga suv degan

Salom salom kelin salom qaynotasiga salom.

Va shu tarzda hamma qarindosh va yaqinlariga, qo‘nu-qo‘shni kabi davradagilarning hammasiga salom berikladi.

Buxoro vohasida o‘lan va laparlar to‘y bazmlarida alohida o‘rin tutadi. Ular nafaqat kuy-qo‘shiqlar ijrosi orqali marosimning ohangini belgilaydi, balki, marsoimni fayzli tashkil etilishiga quvonch va hazil-mutoyiba muhitini yaratishda ham muhim vosita bo‘ladi. O‘lanlarning melodiya va ritmik kuylariga laparlarning kulguli so‘zlari, satirik hazillari qo‘shilib, yig‘ilgan mehmonlarni xushnud etadi, marosimni yanada jonli esda qolarli qiladi. Shu tariqa, Buxoro to‘ylarida o‘lan va

laparlar faqat musiqa va o‘yin-kulguga xizmat qilmay, mahalliy an‘ana va madaniyatning ajralmas qismi sifatida, jamoani birlashtiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘hna Buxoro vohasida qadimiy odatlar tusiga aylangan to‘y marosimlari, qo‘shiqlari, o‘lanlari va rasm-rusmlari xalq og‘zaki ijodining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur vohaning qadimiy an‘analari orqali xalqning ko‘p asrlik urf-odatlarini, ma‘naviy qadriyatlarini va estetik qarashlarini namoyon bo‘ladi. To‘y marosim qo‘shiqlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, ularni saqlash va kelajak avlodga yetkazish milliy madaniyatni asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent. 45-62-betlar.
2. Mirzayev T. O‘zbek folklori. – Toshkent. 88-105-betlar.
3. Jo‘rayev M. Marosim folklori va an‘analar. – Toshkent. 74-90-betlar.
4. Karimov S. Buxoro vohasi folklori. – Buxoro. 112-145-betlar.

